Ijtimoiy ta'lim va tarbiya jarayonini jonlantirish. Go'zallik va axloqiy qadriyatlarni yosh avlodga singdirish maqsadida ta'lim tizimida maxsus kurslar va treninglar tashkil etilishi zarur. Bunday kurslar orqali o'quvchilarga nafaqat go'zallikni tashqi ko'rinish bilan bog'lash, balki ichki go'zallik va axloqiy fazilatlarni qadrlashni o'rgatish mumkin. Shu bilan birga, axloqiy qadriyatlarning muhimligini tushuntirish ham yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Jamiyatda axloqiy standartlarni yuqori darajada saqlash. Jamiyatda adolat, tenglik va hurmat kabi axloqiy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish kerak. Hukumat va ijtimoiy tashkilotlar, jamiyatda axloqiy me'yorlarni rivojlantirish uchun qonunlar va normativlarni ishlab chiqishlari va ularni keng tarqatishlari zarur. Bu orqali ijtimoiy barqarorlikni, ijtimoiy himoyani va odamlarning hurmatini ta'minlash mumkin.

Kross-madaniy o'zaro aloqalar va tadqiqotlarni kengaytirish. Go'zallik va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ularning turli madaniyatlarda qanday shakllanishi bo'yicha kross-madaniy tadqiqotlarni rivojlantirish zarur. Madaniyatlararo aloqalarni chuqurlashtirish, go'zallik va axloqiy qadriyatlarning universal va o'ziga xos jihatlarini tushunish va ulardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Yoshlarni axloqiy qadriyatlarga yondoshuvni o'zgartirish. Yoshlar orasida go'zallik va axloqiy qadriyatlarni o'zaro bog'lab ko'rsatish, yoshlarning axloqiy qarashlarini shakllantirishda samarali bo'lishi mumkin. Yoshlar, o'zlarining tashqi ko'rinishlariga e'tibor berish bilan birga, ichki dunyolarini rivojlantirishga ham e'tibor qaratishlari kerak. Ular uchun axloqiy qadriyatlar va go'zal inson bo'lishning ahamiyatini tushuntirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, go'zallik va axloqiy qadriyatlar jamiyatda muhim ijtimoiy va madaniy rol o'ynaydi. Ularning o'zaro bog'liqligi jamiyatda barqarorlikni, hamjihatlikni va rivojlanishni ta'minlaydi. Tadqiqot davomida taqdim etilgan takliflar, go'zallik va axloqiy qadriyatlarning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlashga, yoshlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi axloqiy muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). G'aybullayev O.M. Nafosat falsafasi. Darslik, Samarqand, Samarqand davlat Chet tiilar instituti nashriyoti, 2024, 544-bet.

(2). Платон. Государство. М., "АСТ", 2021, с. 448. ISBN 9785170983438.

(3). Аристотель. Никомахова этика. Электронная библиотека "Гражданского общества", электронный ресурс, с. 205.URL:http://www.civisbook.ru.

(4). Иммануил Кант. Принцип чистого разума с комментариями и объяснениями. Издательство "АСТ", 2020, с. 224. SBN 978-5-17-104564-7.

(5). Лукач Д. Своеобразие эстетического (переводчики: А.Ю.Айхенвальд, М.А.Журипская, А.Г.Левинтон, Б.Э.Разлогова). Москва, "Прогресс", 1987, с. 574.

(6). Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма (переводчик М.И.Левина). М., "АСТ", 2021, с. 352. ISBN 978-5-17-133943-2.

Mavlyanov Umid Nasriddinovich (Guliston davlat universiteti "Tarix" kafedrasi mudiri, fals.f.b.falsafa doktori (PhD); e-mail: umidmn@rambler.ru)

FAXRUDDIN ALI SAFIY MA'NAVIYAT XUSUSIDA

Annotatsiya. *Zamonaviy globallashib borayotgan dunyoda o'z milliy manfaatlari hamda ota-bobolari qadriyatlariga sodiq avlodni tarbiyalash dolzarb muammolardan biriga aylandi. Mazkur muammolarni yechish hamda zamonaviy barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida o'tmish mutafakkirlarimiz merosining o'rni beqiyosdir. Alloma mutafakkirlarimiz o'z asarlarida barcha zamon va makonlar uchun ham ahamiyatli bo'lgan, o'z davrining barcha talablariga javob beradigan barkamol avlodni shakllantirish usullarini ko'rsatib ketganlar. Mazkur maqolamizda o'tmish mutafakkirlarimizdan biri bo'lgan Faxruddin Ali Safiyning ma'naviyat, uning o'ziga xosligi, mohiyati, mazmuni va vazifalari to'g'risidagi qarashlari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Ali Safiy, ma'naviyat, axloq, meros, mutafakkir, tasavvuf, murid, murshid.*

Мавлянов Умид Насриддинович (заведующий кафедрой «История» Гулистанского государственного университета, доктор философии (PhD) по философским наукам; e-mail: umidmn@rambler.ru)

ФАХРУДДИН АЛИ САФИ О ДУХОВНОСТИ

Аннотация. *В современном глобализированном мире одной из актуальных проблем стало воспитание поколения, верного своим национальным интересам и ценностям предков. Роль наследия мыслителей прошлого несравненно важна в процессе решения этих проблем и воспитания всесторонне развитого поколения. В своих произведениях наши ученые-мыслители показали методы*

формирования современного совершенного поколения, актуального для всех времен и мест и отвечающего всем требованиям своего времени. В данной статье изучаются воззрения о духовности, ее своеобразие, сущность, содержание и задачи Фахруддина Али Сафи, одного из мыслителей прошлого.

Ключевые слова: *Али Сафи, духовность, нравственность, этика, наследие, мыслитель, суфизм, наставник, ученик.*

Mavlyanov Umid Nasriddinovich (Head of the Department of History, Gulistan State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences)

FAKHRUDDIN ALI SAFI ON SPIRITUALITY

Annotation. *In today's globalized world, one of the important issues is raising a generation that stays true to its national interests and the values of its ancestors. The heritage of past scholars plays a crucial role in solving these problems and educating a well-rounded generation. In their works, our scholars have shown methods for forming a perfect modern generation that is relevant in all times and places and meets the requirements of its era. This article examines the views of Fakhruddin Ali Safi, one of the scholars of the past, on spirituality, its uniqueness, essence, content, and tasks.*

Key words: *Ali Safi, spirituality, morality, ethics, heritage, thinker, Sufism, mentor, student.*

Kirish. O‘tmishning ulug‘ mutafakkirlari hayot yo‘li, ilmiy merosi va dunyoqarashini o‘rganish va targ‘ib qilish davrimizning eng dolzarb masalalaridandir. Mazkur jarayonlarda ta’lim va tarbiya tizimining o‘rni beqiyos ekanligi tan olingan haqiqatdir. Ta’lim va tarbiya jarayonida esa ijtimoiy-gumanitar fanlar alohida o‘ringa ega. Inson dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy fanlarning o‘rni alohida ahamiyatli ekanini ta’kidlash zarurdir.

Bu sohada mamlakatimizda keying yillarda jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. “Ijtimoiy-gumanitar fanlar – tarix, arxeologiya, sharqshunoslik, O‘zbekiston xalqlari madaniy merosi va boshqa sohalarda ham salmoqli natijalarga erishilmoqda” [1;119-b.]. Allomalar ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish avlodlararo vorisiylikni ta’minlash omili sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tasavvuf ta’limotining buyuk namoyandalari davomchisi Faxruddin Ali Safiy ma’naviy-axloqiy, diniy-irfoniy g‘oyalarining mohiyatini o‘rganish zaruriyati mavjuddir. Zero, “...zaminimizda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g‘urur bilan ta’kidlash lozim” [2;52-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yurtimizda B.Ahmedov, Sh.Boboxonov, A.Mansur Ali Safiyning qo‘lyozma, toshbosma, litografik asarlarini tahlil etganlar. M.Hasaniy va B.Umrzoq Ali Safiyning «Rashahotu aynil-hayot» asarini nashr qilganlar [3;4-b.]. O.Usmon, N.Komilov, R.Kattayev, B.Babajanov, B. Valixo‘jayev va boshqalar Ali Safiy qarashlarining tasavvuf ta’limotidagi o‘rniga e’tibor qaratganlar. E.E. Karimov xojagon-naqshbandiya tariqati vakillarining Movarounnahr ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rniga oid tadqiqotlarida Faxruddin Ali Safiyning «Rashahotu aynil-hayot» asaridan keng foydalangan [5].

H.Aliqulov, G.Navro‘zova, R.Shodiyev, R.Mahmudov, S.Ismoilov, D.Baxriyeva, A.Alimov va boshqalar o‘z tadqiqotlari predmetidan kelib chiqib, alloma asarlaridan, ayniqsa, «Rashahotu aynil-hayot»-dan keng va atroflicha foydalanganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz mazkur maqolamizda Ali Safiy asarlaridan foydalangan holda, uning falsafiy dunyoqarashini aniqlashga intilamiz. Bunda esa manbaviy asoslanganlik, analiz va sintez, tizimlilik, qiyosiy tahlil uslullaridan hamda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan foydalanamiz.

Tahlil va natijalar. Ma’naviy shakllanishimizda chuqur iz qoldirgan, “Rivojlangan Uyg‘onish davri”, “Temuriylar Renessansi” kabi nomlar bilan tavsiflanayotgan davr xalqimizga ko‘plab daholarni yetishtirib berdi. Ana shu davrning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Ali Safiydir. To‘liq ismi Faxruddin Ali as-Safiy Voiz al-Koshifiy al-Bayhaqiy (1463–1532/33) davrining yetuk adibi, olimi, din va davlat arbobi bo‘lgan. U axloq, fiqh, tarix, falsafa, din, tasavvuf, adab kabi ilmlar bilan shug‘ullangan. Olim Hirotda Sulton Husayn Boyqaro davlatining bosh voizi, ilohiyotchi olim Husayn Voiz Koshifiy oilasida dunyoga keldi va shakllandi. Boshlang‘ich ta’limini o‘z uyida, otasidan, so‘ngra mahalla maktabida olgan.

Ali Safiy mukammal diniy va dunyoviy ta’limni, asosan, Hirot madrasalarida olib, uni Samarqand madrasalarida nihoyasiga yetkazgan va Xoja Ahror Valiy qo‘lidagi ko‘p yillik tasavvufiy-irfoniy bilimlar bilan to‘ldirgan, yetuk arbob bo‘lib tanilgan. Allomaning ma’naviy-axloqiy qarashlari juda keng, asosli va murakkab tizimga, mazmun, mohiyat va ma’noga ega. Ularni to‘la va mufassal bayon etish maxsus tadqiqot talab qilganligi uchun, biz bu o‘rinda ularning asosiy jabha, yo‘nalishlarini sanab o‘tish bilangina cheklanamiz.

1. Rasmiy islom, shariat – "Ahli sunna val jamoa" ma'naviyati va axloqi. Asoslari Qur'oni karim, hadisi shariflar (sunna), tafsir, siyrat kitoblari, shariat qoida, talabalari va me'yorlari. Otasining "Tafsiri Husayniy" asari asosida, shuningdek, Ali Safiyning o'zini "Hirz ul-amon min fittan ul-zamon" asarida Qur'oni karimning harflari, suralari, oyatlarining yuksak axloqiy o'rni, qimmati, shifobaxshligi, xos oyatlar va hadislardagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllangan.

2. Dunyoviy madaniyat, ma'naviyat va axloq. Bu Ali Safiy yashagan keyingi o'rta asrlarda ham katta ma'no va ko'lamda "Ilmi adab" – "Adab ilmi" deb atalgan. Safiy ma'naviy-axloqiy qarashlarining bu jihati bizgacha to'la va mukammal ravishda uning "Latoyif ut-tavoyif" [6] hamda "Odob ul-ashob" [7] asarlarida yetib kelgan.

3. Tasavvufiy-irfoniy ma'naviyat va odob-axloq. Bu, asosan, Ali Safiyning "Rashahot ayn ul-hayot" asarida to'la va mukammal bayon etilgan, konseptual xulosalab berilgan. Shuningdek, "Anis ul-orifiyn fiyl mavaiz" – nasihat, va'z, oyatlar tafsiri, hadislar, qissa va hikoyalar ham mana shu guruhga kiradi.

4. Bevosita "Axloq ilmi" bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy qarashlari, asosan, otasining "Axloqi Muhsiniy" asari asosida, shuningdek, Forobiy, Ibn Miskavayh va Ibn Sinolarning axloq ilmi nazariyasi va muammolariga oid ta'limotlari asosida shakllangan.

Bir qancha vaqt Xoja Ahror Valiy huzurida kotib, murid bo'lib ma'naviy-axloqiy va tasavvufiy tarbiya topgan Ali Safiy, pirining o'z taklifi, tavsiyasi va talabi bilan "Rashahot ayn ul-hayot"ni yozishga kirishar ekan, uning debocha – muqaddimasida o'ta yuksak kamsuqumlik, kamtarlik bilan quyidagilarni yozadi: Xoja Ahrorning inson ko'p bahra va foyda oladigan majlislarida yoki uning yo'l yurishlarida hamrohlik asnosida gapirib, "Xojagoni silsilai naqshbandiya – q.s.ning xasoyisu shamoyil va manoqibu fazoyillarikim, hamma vaqt mazkur oylanur erdi va oning ba'zining istimo'i bila (kamina) musharraf bo'lur erdi va maorifu haqiyiqi baland va latoyifu daqoyiqi arjumandkim, ul Hazratning mu'jaz bayon tillariga payvasta o'tar erdi, ondin tarfi idrok etib, musta'id bo'lur erdi. Va ul favoyidi sharifa va javohiri nafisalarni latifai mudrikaning imdodi bila, quvvai hofizaning sadafida "ka-amsoli-l-lu'lu' ul-maknun" parvarish qilur erdi" [4;14–15-b.].

Ali Safiy uchun piri-murshidning hayot tarzi, riyozatlari, irfoniy jahdlari, jazbaga g'arq bo'lib ketib, o'zining hech ekanligini tushunish Holdir. Bu hol, ya'ni oriflik takomilida maqom bar maqom yuksala borish, zohiriy ma'naviyat – ilmlar, toat-ibodatlar va shariat farzlarini bajarishdan botiniy – irfoniy ma'naviyatga o'ta borish – shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlarini bosib o'tish yo'li inson ma'naviy-axloqiy kamolotiining eng ishonchli va sinalgan asosidir. Bunday inson, ma'naviy yetuk, faol shaxsga, Ali Safiy fikricha, hayotdagi salbiy hodisa, jarayonlar, yetishmovchilik va qiyinchilik, og'ir mashaqqatlar va hatto shayton tajovuz qilganda ham ta'sir qilmaydi, uning pokligi va kamolotiga putur yetmaydi. Bunga erishish esa mutafakkirning qat'iy ishonchiga ko'ra, ko'pincha, ana shu shaxs aql-zakovati, zukkoligiga, irodasining sobitligiga bog'liqdir.

Shu bilan birga, Ali Safiy jamlagan irfoniy ibrat, misollar, hikmatlar inson erishadigan ma'naviy-axloqiy kamolot, borliq faqat mavhum, ilohiy yoki jazbaviy emas, balki juda ham yaqqol ifodalasa, ochiq ko'rsatsa bo'ladigan hayotdagi voqealarda namoyon bo'lishi mumkin. Bu Xoja Bahouddin va otalari Burhoniddin Muhammad oralaridagi jiddiy bahsda namoyon bo'lgandi [4;255-b.].

Tasavvuf irfoniy ma'naviyatiga ko'ra, insonda, eng avvalo, ikkita ma'naviylik mavjud. Birinchisi insonga ota-onasi, tabiat bergan uyg'unlik, jismoniy go'zallik, ta'lim-tarbiya, shuningdek, maxsus san'atlar – amri ma'ruf, va'z, xotiblik, adab ilmi, turli san'atlar vositasida shakllanadigan, ikkinchisi – hammaga nasib etavermaydigan, Xudo ato etadigan tasavvufiy-irfoniy ma'naviyatdir. U ham o'z o'rnida muayyan tizim – izchillikda: shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat maqomlarida shakllanadi. Ma'naviyatning mazkur yuqori shakli yana Allohning hidoyati bilan, lekin bevosita piri-murshid rahnamoligi, yo'l ko'rsatishi va murid tomonidan butun vujudi, shuuri bilan, chin ixlos bilan qabul etishi, bajarishi oqibatida vujudga keladi, shakllanadi.

Ma'naviyatning bu yuqori, yuksak bosqichining shakllanishi konsepsiyasi, mexanizmi va o'ziga xosligini Ali Safiy quyidagicha asoslab beradi: "Maxfiy qolmasunkim, vujudi ma'naviy so'fiyya (q.s.a.) istilohlarida valodati soniyya (ikkinchi, qayta tug'ilish)din iborat tururkim, solik mashima tabiatidin va oning ahkomidin (inson tanasining tabiiy o'sishi, jamiyatdagi o'sish va ularning qonunlaridan) chiqmog'i turur, ondog'kim, Hazrati Iyso (a.s.) oytdilar: "Lam yalija malakut us-samovoti man lam yuvlat tarratayni", ya'ni, "kela bilmas va doxil bo'la bilmas Osmonlar mulkig'a kishikim, mutavallid bo'lmasa ikki(nch)i marta". Va har kishikim, vujudi ma'naviyg'a bu ma'no bilakim, mazkur bo'ldi, musharraf bo'lg'on bo'lsa, har oyina, xojat bo'lmas onga ul namarsagakim, kishidin tariqi ta'lim olmoq iltimos etsa. Bas, vujudi ma'naviy bu mahallda onga mahluldur (ya'ni unga xomil bo'lgan bo'ladi), bo'lurkim, vujudi soniyning tolibi turur. Va

ul kishikim, bul vujudning partavidin onga asare tushubtur. Bas, majoz tariqi bila oytsa bo‘lurkim, onga vujudi ma’naviy hosil turur” [4;283-b.].

Boshqa bir o‘rinda, Ali Safiy Xoja Ahrorning o‘z muridlariga siyosat va malomatlar qilib, aytgan quyidagi so‘zlarini keltirgan. Mazkur so‘zlar ham haqiqiy ma’naviyat, sidq aslida raiyatga madad, adl-insof bilan, zulm-zo‘ravonlik dastini kesish, odamlarga naf, foyda keltirish ekanligini ta’kidlaydi: “Ko‘chalarda oylanib yurunglar, bir ish etinglarkim, odamlar sizlardin manfaat olsunlar. Har vaqt ul vajhkim, eta bilsangizlar o‘zlaringiz kam etungizlar (ya’ni, kamtar, kamsuqum bo‘linglar), sa’iy qilungkim, shuhudi ahadiyyatda kasrat hosil bo‘lsun... arbobi valoyati xossadin afrodi insoniyning akmalig‘a bul ma’ni bar sabili nadra hosil bo‘lur” [4;320-b.]. Ma’naviy vujud kamoloti, Ali Safiy xulosasiga ko‘ra, ayni paytda, xalqqa qo‘shilish, aralashish behuzur qilganda ko‘p istig‘for aytish bilan, ro‘za tutish, taomdan tiyilish bilan, shuningdek, shahvoniy quvvatni tinchlantirish bilan zohiriy vujudni kamol toptirish, uning yordamida “martabai hayvoniyatni kamol toptirishdur” [4;347-b.]. Ana shu ma’noda, Ali Safiy ko‘rsatishicha, chin ma’naviy vujud sohiblari, ya’ni “ahli irshod va avliyoullohlar rasul(sav) ulumi xoslarig‘a voris turur”. Shu bilan birga, Ali Safiy keltirib o‘tganidek, insonni ma’naviy jihatdan foydali mehnat, mashaqqatlarni yengib o‘tish, bartaraf etishchalik boshqa bir jihatlar kamolga erishtirmas. “Haqiqati insoniyni andog‘ pokiza va sof etmasdurkim, balo va mehnat, bular asl xosiyyat bila g‘aliz hajoblarning dofi’i tururlar”.

Ali Safiy e’tiqodiga ko‘ra, inson ma’naviy kamoloti ikki yo‘l bilan: biri foydali mehnat, kasb-kor, dehqonchilik bilan, boshqasi esa sof irfoniy riyozatlar, jiddu-jahd bilan erishiladi.

Ali Safiy nima uchun dunyoda inson ma’naviy kamolotga erishishi qiyin kechadi, degan savol qo‘yib, quyidagicha ilmiy va mantiqiy asosli javob keltiradi: “Arvohi insoniyya javori qudsda hamisha mushohadada erdilar. Vaqtikim, bu olamga keltirib, nafsi nosutiyda mahbus etdilar, abdong‘a taalluq topg‘on jihatidin abdonning muhtoji ilayh bo‘lg‘on nimarsalarikim, maskanu mablas va mat’at va bulardin boshqa nimarsalarga mashg‘ul bo‘ldi. Va ba’zilarg‘a bovujudi bu shug‘l bo‘lub, maqarri asliyg‘a etushmakka mayl va istirobg‘a keldi. Tamattuoti bahimiy va masti lazzoti tabiiy olarning maqarri asliyg‘a tavajjuhlaridin mone’ bo‘lmadi” [4;366-b.].

Ali Safiy xuddi shuningdek, o‘z piri-murshidlaridan keltirgan quyidagi iqtiboslari olim va orif kimligini tushuntirishga yordam beradi. “Oytur erdilarkim: Olim bila Orifning orasida farq bor turur, masalan, bir kishining nahv mas’alalarig‘a ilmi bor tururkim, foil-u marf-u’, maf’ulu mansub turur. Ul kishini ilmi nahvg‘a olim derlar va Orif demaslar. Ammo ilmi nahvg‘a Orif deb ul zamon oyturlarkim, ul mas’alalarning har birig‘a bemushoibai takalluf va tavaqquf o‘z mahallida amla bersa. Bu yanglig‘kim, ilmi tavhidga olim derlar ul kishinikim, oning tavhidi ilm yuzasidin turur, ya’ni e’tiqod etib tururlar va sifat va zotni o‘z ko‘nglida qaror beribdurkim, “lo fo‘ila fi-l-vujudi illalloh”, ya’ni vujudotda Allohu taolodin boshqa fo‘il yo‘q turur. Bu yanglig‘ kishini ilmi tavhidga olim derlar. Agar af’ol va avsofning har biri o‘z mazhari va g‘ayri mazharida zuhur etar vaqti(da) ta’mmul va takalluf va tavaqquf etmay bilurkim, fo‘il Haq subhonahu turur, oni Orif derlar. Agar bu ma’nini ta’ammul bilsa, ya’ni iymonning quvvati bila bilsa, oni muta’arrif derlar” [4;367–368-b.].

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlab o‘tish mumkin:

Avvalo, Faxruddin Ali Safiy yurtimizdan yetishib chiqqan, falsafa, din va tasavvuf yo ‘nqalishlarida samarali ilmiy ijod qilib, salmoqli asarlar qoldirgan mutafakkirlarimizdan biridir.

Ikkinchidan, Ali Safiy o ‘z asarlarida ma’naviyat jumladan, masalalari bilan ham shug‘ullangan, ma’naviyatga ta’rif bergan, inson ma’naviyati shakllanishining darajalarini aniqlab bergan.

Uchinchidan, alloma ma’naviyatni juda yaqqol va yorqin ifoda eta olgan, ma’naviy borliq, ma’naviy kamolot to‘g‘risida o‘z nuqtayi nazarini ilgari surgan. Shuningdek, uning darajalari, mohiyati, vazifalari, qadriyatlarining butun murakkabligiga qaramay, juda aniq, ilmiy, mantiqiy izohlab, talqin bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, Т., “Ўзбекистон”, 2019, 592-бет.

(2). Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., 2008, 176-бет.

(3). Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот... Т., Абу Али ибн Сино, 2003, 536-бет.

(4). Фахруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил-ҳаёт (Обиҳаёт томчилари). Т., Абу Али ибн Сино, 2004, 536-бет.

(5). Каримов Э.Э. Хожа Аҳрор ҳаёти ва фаолияти. Тошкент, “Маънавият”, 2003, 48-бет.

(6). Фахриддин Али Сафий. Латофатнома. Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашрёти, 1996, 192-бет.